



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/4



www.innoworld.net

+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 4
2026

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar

doi[®] digital object identifier

ResearchGate

zenodo

ADVANCED SCIENCES INDEX

ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic Resource Index
ResearchBib

DRJI

Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

TAHRIRIYAT



Bosh muharrir

Odilov Furkat Umarbekovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, PhD

Mas'ul kotib

Axmadjonov Sarvarbek Sodikovich

Andijon mashinasozlik instituti Transport va logistika fakulteti dekani, PhD.

Nashrga tayyorlovchi

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li – Tahrirlovchi

Raxmonov Akmaljon Axmadjonovich – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Rakhimov Akmal Alisherovich

"Mehnat muhofazasi" kafedrasini mudiri, PhD.

Djalilova Turgunoy Abdjalilovna

Andijon Davlat Texnika instituti Oliy matematika kafedrasini dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Zaripova Dilnoza Yashinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti Akusherlik va ginekologiya kafedrasini dotsenti, t.f.n.

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon mashinasozlik instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri

Mirzayev Toxirjon Saloxetdinovich

Namangan davlat pedagogika instituti «Aniq fanlar» kafedrasini katta o'qituvchisi

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

Namangan davlat pedagogika instituti "Aniq fanlar" kafedrasini katta o'qituvchisi

Tuxtaxo'jayev Xanjarbek Boxodirovich

Farg'ona davlat universiteti adaptiv jismoniy tarbiya va sport kafedrasini professori, PhD

Djurabayeva Zamira Axmedovna

Andijon davlat pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini dotsenti, PhD.

Qodirov Olim Odilovich

Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasini o'qituvchisi, p.f.f.d., PhD.



UO'K: 811.521:371.3(575)

O'ZBEKISTONDA YAPON TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Eminjonova Muhayyoxon

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Sharq filologiyasi, Yapon tili filologiyasi, 2507- guruh talabasi, Toshkent, O'zbekiston

Email: eminjonovamuhayyo@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi globallashtirish davrida xorijiy tillarning xalqaro maydondagi o'rnini kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, Yaponiya ilg'or texnologiyalarni kashf etishda, sanoat, madaniyat va ommaviy axborot vositalarida yetakchilik qilib kelmoqda. Ushbu maqola yapon tilini o'rganish - dagi muammolar va qiyinchiliklarni ko'rsatib beradi hamda xorijiy tajribalar asosida samarali yechimlar taqdim etadi. Shuningdek, yapon tilining rivojlanishi hamda ta'lim muassasalarida uni o'qitishni yaxshilash uchun zarur bo'lgan yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Bu til insonlarga qanday imkoniyatlar eishigini ochib bera olishi haqida batafsil ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: yapon tili, ta'lim tizimi, texnologik rivojlanish, xalqaro hamkorlik, madaniyat.

Kirish: Yaqin yillardan buyon dunyoda yapon tili eng taraqqiy etayotgan xalqaro til sifatida o'z o'rnini mustahkamlab kelmoqda. Uning ta'siri qit'alararo bo'lib, madaniyatlar va kasblarni birlashtiradi. Biroq, yapon tili qanday qilib bu maqomga erishdi? Yaponiya 20-asrda ilm fanning texnologiyadan foydalanishi natijasida ro'y beradigan barqaror va keng texnologik taraqqiyotga to'liq kirish va ularga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'lgan G'arbdan tashqari davlat bo'ldi. Qolaversa, 19 - asr o'rtalarida, Yaponiyada oliy ma'lumotli va professional aholining mavjudligi hamda ularning ilm yo'lidagi tinimsiz izlanishlari, sa'y harakatlari bunday yuksak maqomga sazovor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayni vaqtda yapon tili xalqaro biznes, ilm-fan, texnologiya va ko'ngilochar sohalarda keng qo'llanilmoqda. Masalan, yoshlarning diqqatini tobora o'ziga jalb qilayotgan eng mashhur animelar, doramalarning barchasi yapon tilidadir. Ushbu til global miqyosda tarqalishiga qaramay, uning bir nechta muammolari mavjud. Bulardan biri lingvistik tengsizlikdir. Yapon tilini o'zining birinchi tili kabi bilmaydigan ayrim kadrlar ta'lim va kasbiy sohalarda qiyinchiliklarga duch keladi. Qolaversa, yapon tilini o'rganishda aqlli o'quvchilarning yetishmasligi va ta'lim tizimining zamonaviy talablar bilan uyg'unlashmaganligini eng katta kamchilik sifatida ko'rsatish mumkin. Chekka hududlardagi bilimga chanqoq o'quvchilar ishonchli ma'lumotlar bazasini, yapon tiliga ixtisoslashgan o'quv markazlarni topishda qiynalishadi. Natijada, bu kabi vaziyatlar yoshlar ishtiyoqining asta-sekin so'nishiga olib keladi. Talabalar uchun kommunikativ metodlar va interaktiv darslarni tashkil etish orqali til o'rganishni amalyotga tadbiiq qilish

yetarlicharivojlanmagan. Yoshlar o'qish va grammatik qoidalar bilan cheklanib qolib, muloqot davomida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qancha yechimlar taklif etish mumkin.

Avvalo, yapon tilini yangi fan sifatida barcha ta'lim muassasalariga joriy etish hamda malakali kadrlar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'quvchilarga nafaqat yapon tili haqida saboq beradi, balki o'zbekona mentalitetimizga mos bo'lgan ayrim yapon madaniyatini ham ongiga singdirib boradi. Barchaga ma'lumki, Yaponiya aholisi tozalik, odob-axloq va ta'limga alohida e'tibor qaratadi. **"Education at a glance 2025"** hisobotida, Yaponiyaning ta'limga ajratmalarining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3.9 foiz ekanligi qayd etilgan. Ushbu rivojlangan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham onlayn platformalar, raqamli darsliklar, interaktiv o'yinlar hamda xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda dars jadvallari tuzib chiqilsa, ko'zlangan natijaga tezroq erishiladi. Albatta, xorijiy tiillarni o'rganish nafaqat shaxsiy taraqqiyotni, balki mamlakatlararo hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Xususan, Yaponiya kabi texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakat bilan aloqani mustahkamlash uchun yapon tilini mukammal darajada o'rganish dolzarb masalaga aylanmoqda. Yapon tilini biladigan mutaxassislar ko'payar ekan, o'zbekistonliklar uchun yapon kompaniyalari bilan to'g'ridan to'g'ri muzokaralar olib borish imkoniyati kengayadi. Toyota avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi eng yirik sanoatlardan biri hisoblanadi. Shu kabi kompaniyalar bilan shartnomalar o'rnatilsa, mashinalarning sifati, dizayni yaxshilanadi hamda narxlari hamyonbop bo'ladi. Qolaversa, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, energetika va ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Yapon tili mutaxassislari orqali shunday ulkan ishlar amalga oshirilsa, investitsiyalar va yangi ish o'rinlari ochiladi. Aholinning bandligi ta'minlanadi. **BMT 2030-yilga qadar "Barqaror taraqqiyot"** dasturining sifatli va umrbod ta'lim tizimiga ko'maklashish maqsadlari xalqaro ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekistonlik talabalar Yaponiyaning Tokio universitetida grand asosida o'qqib, tajriba almasha olishi uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratildi. Ma'lumki O'zbekiston Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi muhim ittifoqchisi sifatida namoyon bo'lmoqda, buni assiy diplomatik tashriflar, ta'lim sohasidagi tashabbuslar tasdiqlaydi. Bu boradagi izchil sa'y-harakatlar strategik hamkorlikka intilayotganini ta'kidlamoqda. Yuz.uz saytining ma'lumotlariga qaraganda, Yaponiyaning O'zbekistonga ajratilgan sarmoyasi hisobidan hozirda 15 ta korxonaga o'z faoliyatini olib bormoqda. **Yogmec, mitsubishi, sumitomo** va boshqa yetakchi kompaniyalar, allaqachon, ish boshlagan. Bularning barchasiga osongina erishilgani yo'q, albatta, bunday shartnomalarni o'rnatishda yapon tili mutaxassislarining o'rni beqiyosdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, yapon tilini o'rganishning yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlari ushbu tilni samarali va chuqur o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan barcha muhim ko'nikmalarni qamrab oladi. Tilni o'rganishda mazkur metodlarga

e'tibor qaratish o'quvchilarning nafaqat nazariy ko'nikmalarini mustahkamlahga , balki amaliy qobiliyatlarini shakllantirishga ham ko'maklashadi. "Til bilgan,el biladi", deb bekorga aytilmagan. Yosh avlodning global maydonda raqobatbardosh bo'lib , Yaponiyaning ilg'or kompaniyalari bilan O'zbekiston o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochiladi. O'zbekiston han yetakchi davlatlar qatoridan yuqori o'rinni egallab , kelajak uchun rivojlanish strategiyalarini , yangi loyihalar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi . Mazkur takliflarga amal qilinsa, O'zbekistonda malakali kadrlar hamda o'z kasbining fidoyilari soni yil sayin ko'payaveradi. Tilni bilish orqali yoshlarga ko'plab istiqbollari yaratiladi, bu esa O'zbekistonning texnologik , ekonomik, iqtisodiyot hamda innovatsion jihatdan ulkan davlat bo'lishiga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Asian Journal of Middle Eastern and Islamic Studies 16(2), 243-263,2022
- 2.Khasanova G.Kh O'zbekistonda xorijiy tillar ,2020,no_1(30),93-107
- 3.Foreword by Richard R. Nelson .
- 4.Education at a Glance 2025 news.

